

ULUG‘BEK HAMDAMNING "YOLG‘IZLIK" QISSASIDA O‘ZLIKNI ANGLASH JARAYONINING ADABIY IFODASI.

Farg‘ona davlat universiteti

filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi

Vasijonova Surayyo

Annotasiya: Ushbu maqolada Ulug‘bek Hamdamning "Yolg‘izlik" qissasining o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Maqolada bosh qahramonning ichki kechinmalari, o‘zlikni anglash jarayoni, ruhiy iztiroblari va yolg‘izlik bilan kurashi badiiy mahorat bilan tasvirlanadi.

Kalit so‘zlar: jahon adabiyoti vakillarining yolg‘izlik so‘ziga ta’rifi yolg‘izlik motiv, insonning ichki kechinmalari, oila, farzand ne’mati.

Ulug‘bek Hamdam (Hamdamov Ulug‘bek Abduvahobovich) — yozuvchi, tarjimon. 1968-yil 24-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Andijon viloyati Marhamat tumani Yuqori Rovot mahallasida duradgor oilasida tug‘ilgan. 1988-yilda Toshkent davlat universitetining filologiya fakultetiga o‘qishga kirib, uni 1993-yilda tamomladi. 1992-yilda, davlat ta’lim taqsimotiga ko‘ra, o‘qishni davom ettirish uchun u Turkiyaning Konya shahriga jo‘natilgan. 1993-1994 yillarda Sharqshunoslik institutida turk tilidan dars bergan. 1994-1996 yillarda Hozirgi Milliy Universitet o‘zbek filologiyasi fakultetining kunduzgi aspiranturasini o‘qigan. Tangriga eltguvchi isyon» (2002), «Atirgul» (2006), «Seni kutdim» (2007) she’riy hamda «Yolg‘izlik» (2000), «Muvozanat» (2003), «Isyon va itoat» (2004), «Sabo va Samandar», «Uzoqdagi Dilnura» (2010) kabi nasriy asarlari nashr etilgan. Ilmiy asarlar to‘plami ham bor («Badiiy tafakkur tadriji», 2003; «Yangilanish ehtiyoji», 2007). Ulug‘bek Hamdam qardosh turk tilidan tarjimalar ham qiladi. Uning tarjimasida mavlono Jaloliddin Rumiyning «Ichindagi ichindadir» (1997, 2001), professor Usmon Turonning «Turkiy xalqlar mafkurasi» (1995) nomli asarlari alohida kitoblar shaklida nashr etilgan.

Ulug‘bek 1997 yilda yozilgan «Muvozanat» romanida turli xil qismlarni badiiy kashf qilishga intiladi. Ma’lumki, bir ijtimoiy-siyosiy tuzumdan ikkinchisiga o‘tish jarayoni insonlar ongida bir xilda silliq kechadi, deb bo‘lmaydi. Asar bosh qahramoni Yusuf ham muayyan qiyinchiliklar-u muammolarga duch keladi, ko‘ngil muvozanatiga erisholmay iztirob chekadi, lekin ularni ruhiy-ma’naviy jihatdan yengib o‘tadi.

Ulug‘bek Hamdamning ilk she’riy to‘plami 2001 yilda «Tangriga eltuvchi isyon», 2005 yilda esa «Atirgul» to‘plamlari nashr etildi. Bu to‘plamlarga kirgan she’rlarda modern adabiyoti ta’siri ustuvorlik qiladi.

Ulug‘bek Hamdamning 2004 yili nashr etilgan «Isyon va itoat» romani ham bugungi adabiy hayotning muhim voqealaridan biri bo‘ldi.

Ulug‘bek Hamdam ham nazm, ham nasrda ijod qiladi. Uning 1998 yilda dunyo yuzini ko‘rgan «Yolg‘izlik» deb atalgan qissa va hikoyalardan tashkil topgan to‘plami muayyan bahs-munozaralarga sabab bo‘ldi. Chunki ushbu kitobdan joy olgan qissa biz ko‘nikib qolgan epik asarlardan tamoman farqli holda syujetsizdir. Asar qaysi bir jihat bilan kundalikni eslatadi, biroq kundalikka xos bo‘lgan xronologik izchillik yo‘q hisobi. Undagi «voqelik» asar qahramonining ong oqimi mahsuli sifatida qaralishi mumkin. Kamyu Kafka va boshqa bir qator buyuk yozuvchilar ham kundaligi o‘z ahamiyati jihatidan asarlardan-da qimmatliroq ekan. Yozuvchi bu asar orqali ma’lum bir rasmiy minbarlarda aytishdan cho‘chigan, chunki yozuvchi shaxsiy fikrlarini kundalikka yozib qo‘yavergan. "Nobel mukofoti" sohibi - Hermann Hesse: "Yolg‘izlik - hurlikdir",- deb ta’rif beradi. G‘arbning yana bir faylasufi "Yolg‘izlikdan qo‘rqqan inson erkinlikdan ham qo‘rqadi, chunki yolg‘izlik - erkinlikdir",- deb aytib o‘tgan. Ulug‘bek Hamdamning "Yolg‘izlik" asari falsafiy psixologik asar hisoblanadi. Har bir inson yolg‘iz qolgan vaqtda ichki kechinmalardan kelib chiqqan holatda ko‘plab savollarga duch keladi va o‘z hayot yo‘llarida olgan tajribalari orqali javob topishga harakat qiladi. Avvalo, inson hech qachon yolg‘iz qolmaydi, chunki Alloh bandalarini yolg‘izlikka mahkum qilmaydi. Qalbning eng chuqur sukunatida, eng og‘ir sinovlarida ham Yaratganning mehribon nigohi kulbadan ham, ko‘ngildan ham uzoqlashmaydi. Yolg‘izlik insonni Allohga yaqinlashtiradigan eng go‘zal vaziyatlardan biridir. Chunki odamshavq ketganda, dunyo shovqini bosilganda,

banda nihoyat o'zining ichki ovozi — qalbi orqali gapirayotgan Robbisining ishoralarini eshita boshlaydi. Asarda ham qahramonning Allohga bo'lgan murojaatlarini ko'rishimiz mumkin. "Ey Parvardigor! Bu sening menga - insonga bergan hayotingning tashbehidagi ko'rinishi emasmi?" degan o'rinlarni ko'rishimiz mumkin.

Asarning boshlanishi nuqtasi qahramon do'sti bilan gurunglashgani borganligi va hammasi o'sha kundan boshlanganligi aytiladi. Ungacha qahramon el qatori yashayotgan edi hech kimdan yaxshi ham emas, yomon ham. Uydagi tartibsizlikni ko'radi. Shamolni shovullashini tinglab biroz tin oladi. Shu kungi voqeadan so'ng uning farog'ati dars ketadi. Endi u odamlardek yashay olmaydi, o'z botiniga ketishga majbur bo'ladi. Aynan shu yerda qahramonning yolg'izligi boshlanadi va ko'plab savollar paydo bo'la boshlaydi. "Yuragimning juda chuqur joyida men baribir yolg'izman"- deydi qahramon. Xo'sh, uni yolg'izlikka giriftor qilgan kuch nima edi. "... Qulog'imga birdan daraxtning olis shovullashi kirdi va barchasi sob bo'ldi, "kayfim tarqadi". Daraxtning - yuz minglab yaproqlarning ulug'vor qo'shig'i unga mangu Olam musiqasi bo'lib tuyuladi va "ayni mangulikka chapishib parcha-parcha bo'gandir mening haligi baxtim" deydi. Asar davomida bu ohang qahramon botinida takror va takror takrorlanadi, uning tashqariga odamlar oldiga chiqishga va odamlardek yashashiga izn bermaydi. Ya'ni daraxtning shovullashi bu - bir qutb(ramz) bo'lib, qahramonning butun iztiroblari go'yo o'shanga nisbatan, o'shaning qarshisida, o'sha tufayli tug'ilaveradi. Ikkinchi qutb esa uning odatiy holi, bir inson sifatidagi orzu havasi, ehtiyoji ... bo'lgan joydir. Qahramon ana shu ikki qutb - ikki "men" o'rtasida arosatda qoladi va shiddatli azob bilan olishadi. U o'zini o'tga, cho'qqa uradi, lekin najot topolmaydi. Iztiroblar qahramonni yana yolg'izlik sahrosiga olib chiqadi... Qahramon asar davomida hamma narsadan hattoki, oila a'zolaridan kechgan holatda ham o'zini yolg'iz qolishi tabiiy holatdek tuyiladi.

Asarda ko'plab mavzularda keng mulohazalar yoritilib borilgan. Hozirda jamiyatimizda dolzarb masalalardan bo'lgan oila mavzusida ham yetarlicha yetarlicha fikr berilgan. Oila qahramonni hayotga bog'lab turuvchi kuch va tirkak vazifasini o'tagan. Asar davomida qahramon ko'plab tushgin vaziyatlarga tushib qoladi va sevimli yori, jigargo'cha farzandi uchun yashashga majbur qiladigan kuch topadi. Qahramon xotini va

bolasi haqida o'ylaganda: o'zini aybdor sezadi, ularni tashlab ketishga haqqi yo'qligini anglaydi, ular uchun yashashim kerak deb o'zida doim shijoat topadi. Qahramonning ichki holatini xotini tushuna olmaydi, chunki u iztiroblarni birovga oshkor qilmagan holatda yechim topadi. Xotin obrazi uyning iliqligi, muvozanati, sokinligini ifoda etadi. Qahramon ayoli va farzandini shu darajada yaxshi ko'radiki, yozaman deb turgan vaqtda shovqin bo'lib o'z tartibini qo'ya olmaganda ham oila a'zolariga indamagan holatda jim uyga kirib ketadi. Qahramon oila mavzusida so'z yuritar ekan " Alloh taqdirda yana birrov siyladi ruhimni iztirob qirg'og'idan qullikdan xalos etib shodlik qirg'og'iga urdi. Zang bosgan g'am-u anduhlarim shundoq ko'z o'ngimda chil-chil sinarkan, Xudoyga shukronalar o'qidim". Bundan ko'rish mumkinki, farzand eng oliy ne'matdir. Inson farzandini erishgan har bir yutuqlariga quvonadi va " meni farzandim" deya faxrlanadi. Shu ma'noda qahramon bolasi oyoq kiyimini kiyib yurishga harakat qilishini ko'rib quvonganligi va dunyosiga ma'no bag'ishlagan, hayotning yorqin tomonlarini ko'rishga o'rgatgan o'g'li ekanligini aytadi.

Xulosa qilib aytganda, Ulug'bek Hamdamning "Yolg'izlik" asari zamonaviy o'zbek adabiyotida inson ruhiyati, ichki kechinmalar va o'zlikni anglash muammosini badiiy talqin etgan yuksak psixologik roman sifatida alohida o'rin egallaydi. Asarda voqeabandlikdan ko'ra, ichki monolog va falsafiy mushohada yetakchi o'rinni egallaydi. Asarning badiiy-estetik qudrati avvalo qahramonning ruhiy olamini chuqur tahlil qilishda namoyon bo'ladi. Muallif qahramonning ichki kurashlarini, o'zligini anglash jarayonidagi og'riq va iztiroblarni, jamiyatdan begonalashuvni yuqori darajadagi psixologizm orqali tasvirlaydi. Yolg'izlik motivi asar davomida murakkab ramziy ma'no kasb etadi: ba'zan u azob, ba'zan esa ruhiy poklanish, o'ziga qaytish uchun zarur jarayon sifatida ochiladi. Inson ruhiyati va ma'naviy olamini tadqiq etishda muhim badiiy hodisa bo'lib, o'zbek psixologik nasrining zamonaviy bosqichini belgilovchi yirik namunadir. Asarning falsafiy teranligi, badiiy tilning nafisligi va psixologik talqinning kuchliligi uni nafaqat badiiy asar, balki ma'naviy-ruhiy o'quvot sifatida ham ahamiyatli qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 1. Ulug'bek Hamdamning "Yolg'izlik" qissasi. Toshkent-2025.

2. 2. Hamdam, U. (2003). Yolg'iz odam. Toshkent: Adabiyoti.
3. 3.Saidov, A. (2015). Ulug'bek Hamdam ijodida ma'naviy iztirob va yolg'izlik. Toshkent: Fan va Texnologiya.
4. 4.Kholiqov, B. (2018). Adabiyot va Yolg'izlik: Ulug'bek Hamdamning badiiy uslubi Toshkent: Sharq nashriyoti.